

## KITOB BOSISH DASTGOHI BILAN ISHLASH

**Yaxshimuratova Maftuna Ulug‘bek qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-kurs talabasi

**Toshtemirov Rustam Abdurashidovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedirasi o‘qituvchisi

[rustambek22091985@gmail.com](mailto:rustambek22091985@gmail.com).

*Annatotsiya.* Ushbu maqolada kitob, kitob apparati, kitob apparati bilan ishlash, kitob tayyorlash jarayonlari haqida uning paydo bo‘lish tarixi haqida keng ma’lumotlar keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* Kitob, kitob apparati, Baxmanyor, kitob tarixi, Guttenberg, nashriyot.

## OPERATING THE PRINTING MACHINE

*Annotation.* This article deals with books, book equipment, working with book equipment, about the preparation process of ki tob, about the history of its emergence information is provided.

*Key words:* Book, book apparatus, Bachmanyar, book history, Guttenberg, publisher.

## РАБОТА С ПЕЧАТНОЙ МАШИНОЙ

*Аннотация.* В данной статье речь идет о книгах, книжном оборудовании, работе с книжным оборудованием, о процессе приготовления ки тоба, об истории его возникновения информация предоставлена.

*Ключевые слова:* Книга, книжный аппарат, Бахманьяр, история книги, Гуттенберг, издатель.

Axborot makonini globallashuvi va uning “ochiqligi” zaminida yangi bilimlar, faktlar, qarashlar, kontseptsiyalarning oqimi shiddat bilan ortib bormoqda va ommaviy axborot kommunikatsiyalari orqali berilayotgan axborotlardan foydalanish muammosi paydo bo'lmoqda[1].

Shunday odamlar ahtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o'qimoqqa barobar bo'lsin. Shunday kitoblarni ahtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo'lsin . A. X. Baxmanyor. Kitob beminnat do'st, bilim va ma'naviyatimizning yuksalishiga hissa qo'shuvchi asosiy manbaa. Necha asrlardan beri sayqallanib, qanchadan -qancha avlodlarga misoli yo'lchi yulduzdek yo'l ko'rsatib kelayotgan mayoq.

Insonning bilimli, tarbiyasi, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishi uchun muhim omillardan biri. Sir emaski, hozirgi kunda yoshlar vaqtining ko'p qismini ijtimoiy tarmoqlarda turli xil ko'ngilochar videolar, insonni o'ziga jalb etadigan o'yinlar bilan o'tkazmoqda. Kutubxonadagi bog'lama-bog'lama kitoblar kutubxona tokchalarida chang bosmoqda. Biz shuqadar erinchoqmizki, biron joyimizni qashish kerak bo'lsa albatta uni o'zimiz emas kimgadir qashitgimiz keladi. Qancha sarmoya bilan bunyod bo'lgan kutubxonalar-u kitoblar ayrimlar uchun hech ahamiyatsiz. Biz bilamizmi bir kitob tayyorlash uchun qancha vaqt, sarmoya, diqqatlik, mehnat kerakligini. Bir kitob bizga yetib kelguniga qadar qancha bosqichni bosib o'tishinichi...[2].

Emishki, kitob bosish g'oyasi muhrlar orqali vujudga keladi. VII-VII asrlarda yaqin sharqda va yevropada bosma naqsh tushirilgan matolar tayyorlangan.

Takrorlashlar natijasida shakllar bosish uchun xattotlar, nusxa ko'chiruvchilar va kotiblar o'z ism shariflari yoki muallif ism familiyasini yozish uchun muhrdan foydalanishgan. Sababi matnni tez yozish imkonli bo'lgan bo'lsa, ramzlar va turli shakldagi ifodalardan iborat bo'lgan ism shariflar bosh harflarini yozish va bezashga ko'p vaqt ketgan. Shuning uchun bunday ishlarni avvaldan maxsus tayyorlangan

muxrlar yordamida osongina bajarishgan. Bu ayniqsa, xattot va nusxa ko‘chiruvchilarga qulay bo‘lgan.

Katta hajmli qo‘lyozmalarni ko‘chirishda eng ko‘p uchraydigan so‘zlar, tasvirlarni qayta-qayta yozish o‘rniga muhr yordamida osongina bosib ketish ham vaqtni tejardi ham sifatni oshirardi. Bosma nusxalar esa o‘yin kartalari va arzon – garov tasviriy ishlanmalar masalan chaqqon bo‘lgan ikonalar shuningdek, xaritalarni tayyorlashda ko‘p qo‘llanilgan. Bunday gravyuralar avvaliga faqat tasvirdan iborat bo‘lgan. Keyinroq esa bir necha satr matn ham qo‘shib bosila boshlangan.

Gravyura bosishdan kitob bosishga o‘tish uchun faqat bittagina qadam tashlash qolgan edi. Mantiqan qaralganda bu jarayon evolyutsiyasi quyidagicha bo‘lgan avvaliga taxta yoki metal doskaga tasvirni o‘yib tushirib, u orqali qog‘oz yoki matoga tasvirni bosib chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Bunday tasvir ostidagi bir-ikki satr matn qo‘lda yozib chiqilgan.

Keyinroq doskaning o‘zida matnni teskari tartibda o‘yib yozib uni ham tasvir bilan birvarakayiga bosishga o‘tishgan. Shu tahlit ish doskada matnning o‘zini bezak va tasvirlarsiz teskari tartibda o‘yib ishlash va uni qog‘ozga yoki matoga bosishga yetgan. Bunday yo‘sinda bosilgan dastlabki kitoblar hajman kichik bo‘lgan. Biz ularni kichik risola yoki broshyura deb atagan bo‘lar edik. Bunday kitoblar haqiqiy qo‘lyozma kitob sotib olishga imkoni yo‘q ammo savodli o‘rta va quyi ijtimoiy sinflarga mo‘ljallangan. Bunday usulda bosilgan kitoblarning adadi dastlabki matn o‘yish va boshqa tayyorgarlik harajatlari shuningdek, qog‘oz va siyoh sarfini qoplaydigan darajada katta bo‘lishi kerak edi. Ma’lumki, matnlarni o‘yish sabrli va ko‘p vaqt talab etadigan mashaqqatli ish bo‘lgan. Bu ish bilan shug‘ullanidigan ustalarda shu jarayonni tezlashtiradigan hech bo‘lmasa yengillashtiradigan fikr yuzaga keladi.

Bu g'oyani germaniyalik Guttenberg amalga oshiradi. Guttenberning bu ixtirosi matbaachilikda, nafaqat bu sohada balki insoniyat tamadduni tarixida inqilob yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero u tufayli insoniyatning ming yillar davomida to'plagan bilimlarini egallash osonlashdi[3].

Kitobning o'tmishi shunday ekan. Ho'sh bugunichi bugun ham shundaymi. Bugun bir kitob yuzaga kelishi uchun kitob qaysi mavzuda yoziladigan bo'lsa oldin:

- mavzuga oid reja tuzish;
- mavzuning dolzarbligi;
- nashriyot va muallif shartnomasi;
- muxarrirning asar rejasi ustida ishlashi;
- qo'lyozmani muallifdan qabul qilish;
- nashriyot qayd etgan xato va kamchiliklarni to'g'rilash;
- ishni taqrizdan o'tkazishga yuborish yoki muhokamaga qo'yish;
- kitobni bezash;
- muharrir va boshqa bo'limlar xodimlarining hamkorligi;
- kitob tarqatish tizimi;
- kitob savdosi va noshirlik talab etiladi.

Bitta kitobning yuzaga kelishi mana shunday bosqichlarni bosib o'tyapti. Bizdan talab etilayotgan narsa faqat shu kitoblarni bir bor varaqlab o'z bilim saviyamizni yana bir bor yuqori pog'onaga ko'tarish. Shunday odamlar bor ular bilan suhbatdan keyin itlarning peshonasidan o'pging, echkiga hurmat izhor etging, sherga ta'zim qilging keladi. Bu albatta suhbat qurgan insonning bilim saviyasiga bog'liq. Mashhur turk adiblaridan biri Mustafu Mahmud kitob o'qish menga vaqtni o'ldirish vositasi edi. Oxiri borib u vaqtni tiriltira boshlanadi degan so'zlarida naqadar haq edi.

Istiqloldan keyingi yillarda kitob mahsulotlari mavzu-mundarijasida keskin o'zgarish bo'ldi.

Tarixiy, diniy, milliy qadriyatlarga taalluqli kitoblar nashriga alohida ahamiyat berildi. Qur'oni karimning o'zbek tilidagi tarjimasi ikki bor nashr etildi (1991-yil, „Cho'lpon“ nashriyotida; 2001-yil, Toshkent Islom universiteti nashriyotida). Imom Buxoriyning 4 jildli „Hadis“lari (1991—96 yillar, Qomuslar Bosh tahririyati), Amir Temur mavzui bilan bog'liq o'nlab K.lar chiqarildi. Alisher Navoiyning 20 jildli to'la asarlari (1998 — 2002, O'zbekiston Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti) chop etildi. Turli nashriyotlarda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Ulug'bek, Yassaviy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori, Fitrat, Usmon Nosir va boshqalarning asarlari, 33 jildli „Xotira“ kitobi chiqarildi. „O'zbekiston“ nashriyotida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 10 jildli Asarlari nashr qilindi (1997—2002). Mavjud nashriyotlar ommaning talabehtiyojlaridan kelib chiqib badiiy, ilmiy, ommabop, darslik va boshqa tur kitoblar nashr etmoqdalar. Kitoblarning badiiy va matbaa ijrosi ham jahon andozalari talablariga javob beradigan darajada yuksalib bormoqda.

Kitoblarning tuzilishi va turlari. Hozirgi kitoblar o'quvchilar talabi va estetik didiga ko'ra muayyan shaklga ega. Kitob sahifalarga ajratilib, o'rtasidan tikiladi va muqovalanadi. Muqovaning kitob sahifalari bilan biriktirilgan qismi forzats deyiladi. Ayrim hollarda muqovani saqlash va bezak sifatida muqovaga jild (superoblojka) kiygiziladi. Kitobning bosh qismida sarvaraq (titul list) bo'ladi. Unda muallif ism, sharifi, kitobning nomi, nashr etilayotgan joyi, yili, nashriyot nomi va boshqa yoziladi. Sarvaraq qo'sh sahifada bo'lishi mumkin; bu holda u kitobning 2-(muqobil sarvaraq) va 3-betlarini egallaydi.

### **Sarvaraq ma'lumotlarining ayrimlari:**

Kitobning 1-sahifasi — peshvarak, (avantitul)da ham yozilishi mumkin. Sarvaraqning orqa sahifasiga kitob belgisi qo'yiladi. Ba'zi hollarda sarvaraq o'rnida

sarrasm (frontispis) bo‘ladi. Matnning mazmuniga qarab, kitobda turli usulda sarlavhalar qo‘yiladi. Ayrim hollarda yirik sarlavhalar alohida sahifada beriladi. Bunday sahifa zarvara (shmutstitul) deyiladi. Kitobning ruknsarlavha (kolontitul) va ruknraqam (kolonsifr)lari undan foydalanish ishini osonlashtiradi. Shuningdek, kitobda mundarija, muqaddima, xotima, annotatsiya, ilova, izoh, turli ko‘rsatkichlar, bibliografik ro‘yxatlar ham bo‘lishi mumkin. Kitob sahifasining hajmi uning nashr bichimi bilan belgilanadi[4].

Kitoblar qanday o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallanganligi, maqsadi va mavzuiga qarab turlarga ajratiladi. O‘quvchilarga ko‘ra, kitoblar ommaviy, mutaxassislar uchun va bolalar kitobi bo‘lishi mumkin. Maqsadiga ko‘ra, rasmiy, ilmiy, ilmiyommabop, o‘quv, adabiy-badiiy, ma‘lumotnoma va boshqa xil kitoblarga bo‘linadi. Ilmiy kitoblar ichida monografiya keng tarqalgan. O‘quv kitoblari darslik, o‘quv qo‘llanmasi, o‘quv metodik qo‘llanma va boshqa turlarga ajratiladi. Ma‘lumotnomalar esa lug‘at, ensiklopediya, kalendar, yo‘l ko‘rsatkichlar qabilarga bo‘linadi[5].

Qog‘ozning kashf qilinishi kitob tarixida yangi davr ochdi. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, 650 yillardayoq Samarqandda qog‘ozli kitoblar bo‘lgan. 13-asrdan Yevropada qog‘oz asosiy yozuv materiali bo‘lib qoldi. Qog‘oz kitobning ko‘payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. Kitob bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshladi. Asta-sekin xattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa, O‘rta Osiyoda o‘rta asrlarda xattotlik san‘ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko‘p avlodlari kitob tayyorlash usulini — materiallar, siyoh, xat ko‘chirish texnikasini takomillashtirib bordilar[6].

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bir kitobning yuzaga kelishi juda murakkab. Biz kitobning ichiga kirib o‘zimiz bilmagan dunyo ilm ahli bilan birga bo‘lamiz. Shunday ekan biz sizga deymizki, ilm ahlidan bo‘ling. Chunki kitob-tafakkur qanotidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Toshtemirov R.A. Mediata'lim - yoshlarni salbiy axborotlardan himoya qilishning muhim omili. Scholar, Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, <https://doi.org/10.5281/zenodo.10056509> Pp 187-195, 2023.
2. Z. T.Tahirov.Z.T., Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. Tafakkur bo'stoni, 2015.
3. Katsprjak Ye.I., Istoriya knigi, M., 1964.
4. Sidorov A.A., Kniga i jizn, M., 1972.
5. Lyublinskiy B.C., Kniga v istorii chelovecheskogo obshestva, M., 1972.
6. Rustamov M., O'zbek kitobi, T., 1968.

**Internet saytlari.**

1. Fayllar.org.
2. stendstroy.ru.